

MATN TAHLILI JARAYONIDA LINGVISTIK TAHLIL USULLARI

*Robiyaxon Akbaraliyeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti I bosqich magistranti
O‘lmasbek Saidov (dots.),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: ushbu tezisda maktab ona tili darslarida o‘quvchilarning matnni tahlil qila olish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan usullar haqida 7-sinf darsligi misolida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *matn, kompetensiya, matn lingvistikasi, psixolingvistika, tabdil.*

Annotation: the thesis provides information about the methods necessary to develop the competence of students to analyze the text in school mother tongue classes using the example of the 7th grade textbook

Keywords: *text, competence, text linguistics, psycholinguistics, translation*

Matn (*lotincha:* textus – mato; birikma) – ma’lum moddiy tashuvchiga bog‘langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to‘liq ketma-ketligi bo‘lib, tilshunoslikda bu atama keng doirada, jumladan, og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llaniladi. Matn tushunchasiga olimlar tarafidan turlicha izohlar berilgan. I.R.Galperin matn xususiyatlari haqida quyidagilarni yozadi: “Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, tuli xil leksik, Grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir”.

Matn va uning xususiyatlari bilan matn lingvistikasi shug‘ullanadi. Uning idrok etilishi esa bevosita psixolingvistika bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda DTS ning joriy etilishi va unda kompetensiya va kompetentlik masalalariga alohida urg‘u berilishi o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun bosh omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Maktab ona tili darsliklarida berilgan matnlarning asl mohiyatini anglash va o‘quvchilarda uni amaliyotga tatbiq eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bevosita matn lingvistikasi tayanch yo‘nalish hisoblanadi. Xususan, matn tahlili jarayonida bir nechta lingvistik tahlil usullari yordam beradi.

Lisoniy tabdil usuli. “Tabdil” so‘zi “o‘zgarish”, “almashinish” degan ma’nolarni anglatadi. Bu usulda matnda berilgan so‘zlarning ma’nosi izohlanib, sinonimlar qatoridan nega, aynan, shu so‘zning tanlab olingani haqida mulohaza yuritiladi. Misol uchun, 7-sinf ona tili darsligidan joy olgan E.Vohidovning quyidagi satrlarini olaylik:

“Oftob chiqdi, quyosh chiqdi, kun chiqdi,

Mehr-u shams-u xurshidi gardun chiqdi.

Bir zamonlar bolalar uchun aytilgan shu jo‘ngina va g‘o‘rgina ikki satrning o‘zia quyoshning oltita nomini topasiz!” ushbu matnagi *g‘o‘r* so‘zining asl lug‘aviy ma’nosi “pishib yetilmagan”, “xom” bo‘lib, *-gina* qo‘shimchasi orqali ijodkor bolalarga xos beg‘uborlikni ifodalamoqda. Yozuvchi hali dunyo haqidagi tasavvurlari to‘la shakllanmagan, hayotni o‘z nigojhi bilan sof va pokiza ko‘radigan bolalar uchun aytilgan samimiy qo‘shiqlarni *g‘o‘rgina* so‘zi bilan atab, ko‘zlangan badiiy maqsadiga erisha oladi va his-tuyg‘ularini bevosita o‘quvchiga ham yuqtira oladi. “Pishmagan satrlari”, “xom satrlari” birikmalari esa uslubiy jihatdan yuqoridagi so‘z ifodalayotgan ma‘no nozikliklaridan yiroqlashadi.

Lug‘atlarga asoslanish usuli. Bu eng samarali usullardan biri bo‘lib, darsliklardagi tarixiy va ilmiy matnlarning mohiyatini ochishda ahamiyatli sanaladi. Jumladan, 7-sinf ona tili darsligida berilgan “Elektromobil o‘zi nima?” matnidagi “dvigatel”, “akkumulyator”, “rekuperativ tormoz”, “amortizator”, “filtr”, “konditsiyalash” kabi atamalar, tabiiy ravishda, matnning to‘la tushunilishiga to‘sqinlik qiladi. Bu holda texnika fanlariga murojaat qilish zarurati tug‘iladi. Bu

esa fanning boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlaydi. O'quvchi bir vaqtning o'zida bir nechta soha haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida qo'llaniladigan bu usul matnda eng ko'p ishlatilgan, xarakterlilik xususiyatiga ega bo'lgan birliklarni alohida ajratib olish va ularning ma'nolarini izohlash orqal matnni qabul qilish jarayonining samarali bo'lishiga yordam beradi. Darslikdagi “O'tkan kunlar” yozilgan xona...” matnida qo'llanilgan “g'ashiga tegmoq”, “silliq yurishib ketmoq”, “qo'l qalamdan chiqib qolibdi”, “qalamning qog'oz uzra yurishi” singari birliklar ajratib olinib, ularning matnda nazarda tutilgan ma'nosi ochib berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu holda, o'quvchilarning ko'z o'ngida ijodxon muhiti va A.Qodiriy siymosi yorqin namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchi o'zi uchun yangi iboralarni kashf qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning nazariy va amaliy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishda pedagogdan ilmiylik va hayotiylik tamoyillariga amal qilish hamda eng samarali usullarni dars jarayoniga tatbiq etish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'rufjon Yo'ldoshev va boshq. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
2. Ma'murov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2006.
3. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya – T., 2006.
4. “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017-yil 6-aprel, 187-son.
5. Ziyouz.com sayti ma'lumotlari.